



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

RATSIONALIZM VA RUHIY-INTUITIVIZM: KANT VA G‘AZZOLIY AXLOQ FALSAFASINING EPISTEMOLOGIK ASOSLARI

Abdullayev Ibadulla Abdullayevich
Ma'mun universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Immanuel Kant va Al-Ghazali axloq falsafasining epistemologik asoslari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ratsionalistik (deontologik) va ruhiy-intuitiv yondashuvlar o'rtasidagi nazariy farqlarni aniqlash hamda ularning zamonaviy falsafiy diskursdagi integratsiya imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Maqolada Kantning axloqiy bilishni aprior, universal va aqlga asoslangan tizim sifatida talqin etishi, uning kategorik imperativ konsepsiyasi orqali axloqiy qarorlarning mantiqiy va normativ asoslari yoritiladi. Shu bilan birga, G'azzoliy ta'limotida axloqiy bilish qalbning ruhiy poklanishi, niyat va ichki tajriba bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida axloqiy bilishning ikki paradigmasi — ratsional-normativ va ruhiy-intuitiv epistemologiyalar o'zaro solishtirilib, ularning kuchli va muammoli jihatlari aniqlanadi. Zamonaviy falsafiy yondashuvlar, jumladan komplementarlik prinsipi va "ikki jarayonli nazariya" asosida ushbu yondashuvlarni integratsiya qilish zarurati ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: axloq falsafasi, epistemologiya, ratsionalizm, intuitivizm, kategorik imperativ, qalb, niyat, Kant, G'azzoliy.

РАЦИОНАЛИЗМ И ДУХОВНЫЙ ИНТУИТИВИЗМ: ЭПИСТЕМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭТИКИ ИММАНУИЛ КАНТ И АЛЬ-ГАЗАЛИ

Абдуллаев Ибадулла Абдуллаевич
Университет Ма'мун, доцент (PhD)

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ эпистемологических оснований этики Иммануил Кант и Аль-Газали. Основная цель исследования — выявить теоретические различия между рационалистическим (деонтологическим) и духовно-интуитивным подходами, а также раскрыть возможности их интеграции в современном философском дискурсе. В работе рассматривается трактовка Кантом морального познания как априорной, универсальной и основанной на разуме системы, а также анализируется его концепция категорического императива как логико-нормативной основы моральных решений. В то же время в учении Аль-Газали обосновывается связь морального познания с духовным очищением сердца, намерением и внутренним опытом. В ходе исследования сопоставляются две парадигмы морального познания — рационально-нормативная и духовно-интуитивная эпистемологии, выявляются их сильные и проблемные стороны. На основе современных философских подходов, включая принцип комплементарности и «двухпроцессную теорию», обосновывается необходимость их интеграции.

Ключевые слова: этика, эпистемология, рационализм, интуитивизм, категорический императив, сердце, намерение, Кант, Аль-Газали.

RATIONALISM AND SPIRITUAL INTUITIONISM: EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE ETHICS OF IMMANUEL KANT AND AL-GHAZALI

Abdullayev Ibadulla Abdullayevich
Ma'mun University, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article presents a comparative analysis of the epistemological foundations of the ethics of Immanuel Kant and Al-Ghazali. The main objective is to identify the theoretical differences between rationalist (deontological) and spiritual-intuitive approaches and to explore their integration potential within contemporary philosophical discourse. The paper examines Kant's interpretation of moral cognition as an a priori, universal, and reason-based system, highlighting his concept of the categorical imperative as the logical and normative basis of moral decisions. At the same time, Al-Ghazali's doctrine emphasizes the connection between moral knowledge and spiritual purification of the heart, intention, and inner experience. The study compares two paradigms of moral cognition—rational-normative and spiritual-

intuitive epistemologies—revealing their strengths and limitations. Drawing on modern philosophical approaches, including the principle of complementarity and dual-process theory, the necessity of integrating these approaches is substantiated.

Keywords: ethics, epistemology, rationalism, intuitionism, categorical imperative, heart, intention, Kant, Al-Ghazali.

Immanuel Kant axloq falsafasi tarixida deontologik (burchga asoslangan) etikani eng mukammal shaklda ishlab chiqqan mutafakkir hisoblanadi. Uning axloqiy tizimi natijaga emas, balki harakatning ichki prinsipi va niyatiga tayanadi. Axloqiy bilishning epistemologik asoslari masalasi falsafa tarixida eng murakkab va bahsli muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning yaxshilik va yomonlikni ajratish qobiliyati, uning axloqiy qarorlar qabul qilish mexanizmi hamda bu qarorlarning asoslari gnoseologiya va etika kesishgan nuqtada shakllanadigan fundamental masalalardandir. Ayniqsa, zamonaviy falsafiy diskursda axloqiy bilimning tabiati faqat ratsional asoslar bilan cheklanadimi yoki u insonning ichki ruhiy tajribasi bilan ham belgilanadimi, degan savol dolzarb bo‘lib qolmoqda.

G‘arb falsafasida Immanuel Kant axloqiy bilishni inson aqlining avtonom faoliyati natijasi sifatida talqin qiladi [1]. Uning nazariyasiga ko‘ra, axloqiy qonunlar tajribadan mustaqil ravishda, ya‘ni apriori shaklda mavjud bo‘lib, ular universallik va zaruriyat xususiyatiga ega. Kantning kategorik imperativ konsepsiyasi axloqiylikni ratsional va normativ tizim sifatida asoslab beradi. Bu yondashuv axloqiy bilimni diskursiv va mantiqiy asosga ega bo‘lgan bilim turi sifatida ko‘rsatadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, islom falsafasining yirik vakili G‘azzoliy axloqiy bilishni inson qalbining ruhiy poklanishi va ichki tajribasi bilan bog‘laydi [2]. Uning ta‘limotida haqiqiy bilim nafaqat aql orqali, balki “kashf” va “ilhom” orqali ham anglanadi.

G‘azzoliy axloqiylikni tashqi normativ qoidalardan ko‘ra, insonning ichki holati — niyat va qalb sifati bilan izohlaydi. Shu jihatdan uning epistemologiyasi ruhiy-intuitiv xarakterga ega bo‘lib, bilishning tajribaviy va transformativ modelini taklif etadi. Mazkur ikki yondashuv — ratsionalizm va ruhiy-intuitivizm — axloqiy bilishning ikki turli paradigmasini ifodalaydi. Biroq zamonaviy falsafada ushbu yondashuvlarni mutlaq qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularning o‘zaro aloqadorligi va integratsiya imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy etikada inson qarorlarining nafaqat mantiqiy, balki psixologik, emotsional va ruhiy omillar bilan ham bog‘liqligi tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda. Ushbu maqola Kant va G‘azzoliy axloq falsafasining epistemologik asoslarini qiyosiy tahlil qilish, ratsionalizm va ruhiy-intuitivizm o‘rtasidagi nazariy farqlarni aniqlash hamda zamonaviy falsafiy yondashuvlar asosida ularning integratsiya imkoniyatlarini bayon etishga qaratilgan.

Asosiy qism. Immanuel Kant axloq falsafasida epistemologik burilish yasab, axloqiy bilimni empirik tajribadan mustaqil ravishda asoslashga intiladi. Uning fikricha, axloqiy qonunlar tashqi dunyodan olinmaydi, balki inson aqlining ichki tuzilmasida mavjud bo‘lgan universal prinsiplardan kelib chiqadi. Shu bois axloqiy bilim tajribaga tayanmasdan, sof aql va mantiq asosida hosil bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lib, u tajribadan oldin va undan mustaqil ravishda amal qiladi. Kant bu pozitsiyasi orqali axloqni relativizm va subyektivizm xavfidan himoya qilishga harakat qiladi. Agar axloqiy qonunlar tajribaga bog‘liq bo‘lsa, u holda ular o‘zgaruvchan va individual bo‘lib qoladi. Kant esa, aksincha, axloqiylikni zaruriy va umumiy qonun sifatida asoslashni maqsad qiladi. Shu jihatdan uning epistemologiyasi normativlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bilishning ishonchliligi universallik mezonini orqali tekshiriladi.

Kantning axloqiy epistemologiyasida markaziy tushuncha “amaliy aql”dir. Nazariy aql borliqni tushuntirishga xizmat qilsa, amaliy aql insonning xatti-harakatlarini tartibga soladi. Aynan amaliy aql orqali inson o‘zining axloqiy majburiyatlarini anglaydi. Bu yerda muhim jihat avtonomiya tushunchasidir. Kantga ko‘ra, inson axloqiy qonunlarni tashqaridan olmaydi, balki o‘z aqli orqali o‘zi yaratadi va ularga bo‘ysunadi. Bu esa axloqiy subyektini erkin va mustaqil qiladi. Avtonomiya tushunchasi axloqiy bilishni tashqi avtoritetlardan ajratib, uni ichki ratsional asosga tayanadigan tizimga aylantiradi. Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan, Christine Korsgaard Kantning aynan shu jihatini rivojlantirib, axloqiy majburiyatni insonning o‘zini identifikatsiya qilishi bilan bog‘laydi. Ya‘ni inson axloqiy qonunlarga bo‘ysunish orqali o‘zini ongli subyekt sifatida namoyon qiladi.

Kant etikasi epistemologiyasining eng muhim elementi kategorik imperativdir. U quyidagicha ifodalanadi: “Shunday amal qilki, sening xatti-harakat qoidang umumiy qonun sifatida amal qila olsin.” Bu prinsip axloqiy bilishning mantiqiy mezonini beradi. Har qanday harakat universallashtirilishi mumkin bo‘lsa, u axloqiy hisoblanadi. Aks holda esa u axloqiy jihatdan qabul qilinmaydi. Kategorik imperativ orqali Kant axloqiy qarorlarni ratsional tekshiruvdan o‘tkazadi, subyektiv istaklarni cheklaydi, umumiylik

va tenglik prinsipini ta'minlaydi. Bu yerda epistemologik jihatdan muhim nuqta shundaki, axloqiy bilim diskursiv tekshiruv orqali aniqlanadi. Ya'ni u mantiqiy muhokama va refleksiya natijasida shakllanadi. Onora O'Neill bu g'oyani davom ettirib, Kant etikasi aslida ijtimoiy muloqot va ratsional kelishuv uchun universal asos yaratishini ta'kidlaydi.

Kant epistemologiyasida subyekt passiv kuzatuvchi emas, balki faol yaratuvchidir. U axloqiy qonunlarni nafaqat angelaydi, balki ularni o'z ongida shakllantiradi. Shu sababli axloqiy bilish jarayoni refleksiv, ongli va normativ faoliyat hisoblanadi. Refleksivlik insonning o'z fikrlari, xatti-harakatlari va tajribasini ongli ravishda tahlil qilishi, baholashi va qayta ko'rib chiqishi jarayonidir. Bu modelda inson o'zini "maqsad sifatida" qabul qiladi va boshqalarni ham shunday qabul qilishga majbur bo'ladi. Bu esa axloqiylikni inson sha'ni va qadr-qimmati bilan bog'laydi.

Kantning ratsionalistik modeli kuchli nazariy asosga ega bo'lsa-da, u bir qator savollarni ochiq qoldiradi. Jumladan: axloqiy qarorlar faqat aql asosida qabul qilinadimi? Emotsiya va ichki tajribaning roli qanday? Real hayotdagi murakkab vaziyatlarda universallik prinsipi har doim ishlaydimi? Zamonaviy falsafada aynan shu savollar Kant modelining qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'lgan. Masalan, Alasdair MacIntyre Kant etikasi haddan tashqari abstrakt ekanligini tanqid qiladi va axloqni tarixiy hamda ijtimoiy kontekstda tushunishni taklif etadi.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy axloq va bilish masalasini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi. Uning epistemologiyasi insonning faqat aqliy faoliyati bilan cheklanmaydi, balki ruhiy va ma'naviy kamolot jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu bois G'azzoliy bilishni ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, bilish quyidagi uch asosiy darajaga ega:

1. Hissiy bilish — tashqi olamni idrok qilish orqali shakllanadi;
2. Aqliy bilish — mantiqiy tafakkur va tushunchalar orqali yuzaga keladi;
3. Ruhiiy-intuitiv bilish — qalbning poklanishi natijasida hosil bo'ladi.

Aynan uchinchi daraja G'azzoliy epistemologiyasining markazida turadi va axloqiy bilishning eng ishonchli manbai sifatida talqin qilinadi.

G'azzoliy ta'limotida "qalb" bilishning markaziy subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda qalb biologik organ emas, balki insonning ruhiy-idrokiy markazi sifatida tushuniladi. Qalb haqiqatni qabul qiluvchi, ma'naviy idrokni shakllantiruvchi va axloqiy qarorlarning manbai hisoblanadi. Qalb aslida haqiqatni idrok etish qobiliyatiga ega, biroq u nafs, shahvat va dunyoviy mayllar bilan "to'silib" qolishi mumkin. Shu sababli haqiqiy bilishga erishish uchun qalbni poklash zarur. Bu nuqtayi nazar axloqiy bilishni nafaqat gnoseologik, balki etiko-psixologik jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

G'azzoliy epistemologiyasining eng muhim jihati kashf (ochilish) va ilhom (ilohiy idrok) tushunchalaridir. Unga ko'ra, haqiqiy bilim ba'zan mantiqiy xulosa orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri qalbgga "yoritilish" orqali keladi. Bu jarayon quyidagi xususiyatlarga ega:

- diskursiv emas, ya'ni mantiqiy zanjir orqali yuzaga kelmaydi;
- bevosita, ya'ni vositachilarsiz amalga oshadi;
- tajribaviy, ya'ni subyekt tomonidan boshdan kechiriladi.

G'azzoliy bu bilimni "nur" metaforasi orqali tushuntirib, bilimni qalbgga tushadigan ilohiy nurga qiyoslaydi. Bu yondashuv zamonaviy falsafada intuitivizm yoki tajribaviy epistemologiya sifatida talqin qilinadi. G'azzoliy axloqni tashqi xatti-harakatlardan ko'ra, insonning ichki holati bilan bog'laydi. Bu yerda markaziy tushuncha "niyat"dir. Unga ko'ra:

- bir xil amal turli axloqiy qiymatga ega bo'lishi mumkin;
- bu qiymat amalning o'ziga emas, balki niyatga bog'liq;
- haqiqiy axloqiylik qalbdagi poklik bilan belgilanadi.

Bu qarash axloqiy bilishni subyektiv emas, balki ichki autentiklik bilan bog'laydi. Ya'ni inson o'z qalbini bilish orqali axloqiy haqiqatga yaqinlashadi.

G'azzoliy aqlni inkor etmaydi, aksincha, uni zarur vosita sifatida tan oladi. Biroq u aqlni cheklangan, vositaviy va tayyorlovchi bosqich sifatida baholaydi. Aql mantiqiy tahlil qiladi, tushunchalarni aniqlaydi, ammo eng yuqori haqiqatni angalay olmaydi. Shu sababli G'azzoliy epistemologiyasida aql ruhiy bilishga olib boruvchi vosita sifatida qaraladi. Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan, Seyyed Hossein Nasr bu modelni "intellectus" (qalbiy idrok) tushunchasi orqali izohlaydi va uni sof ratsionalizmga muqobil sifatida baholaydi [3].

G'azzoliy modeli axloqiy bilishning quyidagi jihatlarini chuqur ochib beradi:

- ichki tajriba va ruhiy transformatsiya;
- niyat va qalb pokligining roli;

- bilishning subyektiv-tajriba jihati.
Biroq bu yondashuv ham muammolardan xoli emas:
- intuitiv bilimni qanday tekshirish mumkin?
- subyektiv tajriba universallikka ega bo'ladimi?
- turli insonlarning "kashf" tajribalari bir-biriga zid bo'lsa, qaysi biri haqiqiy?

Bu savollar G'azzoliy epistemologiyasining zamonaviy falsafiy bahslar uchun ochiq jihatlarini ko'rsatadi.

Kant va G'azzoliy axloq falsafasining epistemologik asoslari ikki turli paradigmani ifodalaydi. Kant modeli ratsional-normativ epistemologiyaga asoslangan bo'lsa, G'azzoliy yondashuvi ruhiy-intuitiv epistemologiya sifatida namoyon bo'ladi. Bu farq, avvalo, bilishning manbai va metodologiyasida aks etadi. Kantga ko'ra, axloqiy bilim inson aqlining ichki strukturasi orqali shakllanadi va u universallik mezonini bilan aniqlanadi. G'azzoliy esa bilishni qalbning ruhiy poklanishi natijasida hosil bo'ladigan tajriba sifatida talqin qiladi. Shu bois Kantda bilish diskursiv va mantiqiy, G'azzoliyda esa bevosita va intuitiv xarakterga ega.

Kant va G'azzoliy axloqiylik mezonini turlicha asoslaydi. Kant etikasi kategorik imperativ orqali axloqiy harakatning universallashuv imkoniyatini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ya'ni amal barcha uchun umumiy qoida bo'lsa, u axloqiydir. G'azzoliy esa axloqiylikni tashqi amal bilan emas, balki ichki holat — niyat bilan bog'laydi. Bu yerda bir xil amal turli axloqiy qiymatga ega bo'lishi mumkin, chunki uning haqiqiy mazmuni subyektning ichki motivatsiyasiga bog'liq.

Kant epistemologiyasida axloqiy subyekt avtonom ratsional mavjudotdir. U o'z qonunini o'zi yaratadi va unga amal qiladi. Bu yerda erkinlik o'zini o'zi boshqarish qobiliyati bilan belgilanadi. G'azzoliyda esa subyekt ruhiy kamolotga intiluvchi mavjudotdir. Uning erkinligi nafaqat tashqi ta'sirlardan, balki ichki nafsni mayllardan xalos bo'lish orqali amalga oshadi. Shu sababli G'azzoliy modelida erkinlik ichki tozalanish, nafsni yengish va ma'naviy o'sish bilan bog'liq.

Kant epistemologiyasida axloqiy bilimning ishonchliligi uning universalligi va mantiqiy izchilligi bilan ta'minlanadi. Har qanday axloqiy qoida ratsional tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. G'azzoliy modelida esa bilishning ishonchliligi subyektning ruhiy holati bilan bog'liq. Qalb pok bo'lsa, bilish ham haqqoniy bo'ladi. Bu esa bilishni tashqi mezonlar bilan emas, balki ichki tajriba orqali tekshirishni anglatadi. Bunday yondashuv zamonaviy falsafada "intersubyektivlik" muammosini keltirib chiqaradi.

Kant axloqiy harakatning asosiy motivini "burch" tushunchasi orqali izohlaydi. Inson axloqiy qonunga hurmat sababli harakat qiladi. Bu yerda hissiyotlar ikkilamchi ahamiyatga ega. G'azzoliy esa axloqiy motivatsiyani muhabbat, ixlos va Allohga yaqinlik bilan bog'laydi. Bu modelda hissiy va ruhiy komponentlar muhim rol o'ynaydi.

Muhokama. Zamonaviy falsafada Kant va G'azzoliy yondashuvlarini mutlaq qarama-qarshi qo'yishdan ko'ra, ularni integratsiya qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Chunki real axloqiy qarorlar faqat ratsional emas, faqat intuitiv ham emas, balki ularning o'zaro ta'siri natijasidir. Charles Taylor axloqiy identitetni ichki ma'naviy tajriba bilan bog'lasa [4], Alasdair MacIntyre axloqni ijtimoiy kontekst bilan izohlaydi. Bu yondashuvlar G'azzoliy va Kant o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi.

Shu asosda quyidagi integrativ modelni taklif etish mumkin: ratsional tahlil axloqiy qarorning mantiqiy asosini bersa, ruhiy-intuitiv tajriba uning ichki mazmunini belgilaydi. Zamonaviy axloq falsafasida axloqiy bilishning tabiati masalasi yangi bosqichga ko'tarilgan. Klassik ratsionalizm va intuitivizm qarama-qarshiligi bugungi kunda yanada murakkab shaklga ega bo'lib, inson qarorlarining ko'p omilli xarakteri bilan izohlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Immanuel Kant va G'azzoliy qarashlari zamonaviy etikada ikki fundamental model sifatida qayta talqin qilinmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning axloqiy qarorlari faqat ratsional hisob-kitoblarga asoslanmaydi. Psixologiya va neyrofan sohasidagi izlanishlar axloqiy qarorlar jarayonida intuitiv, emotsional va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Bu esa Kantning sof ratsional modelini qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Zamonaviy falsafada tobora keng tarqalayotgan yondashuvlardan biri komplementarlik prinsipidir. Ushbu prinsipga ko'ra, turli epistemologik modellarning har biri haqiqatning ma'lum bir jihatini aks ettiradi va ular o'zaro inkor qilmaydi, balki bir-birini to'ldiradi.

Shu asosda Kant va G'azzoliy qarashlarini quyidagicha integratsiya qilish mumkin: Kant axloqiy qarorning ratsional asosini ta'minlaydi, G'azzoliy esa axloqiy qarorning ichki-ruhiy mazmunini ochib beradi.

Bu integrativ model axloqiy bilishni quyidagi uch komponent orqali tushuntiradi:

1. Ratsional komponent — mantiqiy tahlil va universallik;
2. Intuitiv komponent — ichki sezgi va ruhiy tajriba;
3. Ijtimoiy komponent — madaniy va tarixiy kontekst.

Mazkur yondashuv axloqiy qarorlarni yanada real va kompleks tarzda tushuntirish imkonini beradi.

Charles Taylor axloqiy identitetni insonning ichki ma'naviy tajribasi bilan bog'lab, G'azzoliy modeliga yaqin pozitsiyani ilgari suradi. Unga ko'ra, inson o'zini anglash orqali axloqiy qarorlar qabul qiladi. Alasdair MacIntyre esa axloqni ijtimoiy an'ana va tarixiy kontekst bilan bog'laydi. U Kantning abstrakt universallik prinsipini tanqid qilib, axloqiylikni real hayotiy tajriba bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, zamonaviy etikada "dual-process theory" (ikki jarayonli nazariya) keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra, inson qarorlari tezkor intuitiv jarayon va sekin ratsional tahlil o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Bu yondashuv Kant va G'azzoliy qarashlarini ilmiy jihatdan birlashtiruvchi model sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. Immanuel Kant axloq falsafasi ratsionalizm asosida qurilgan bo'lib, unda axloqiy bilim apriori va universal xarakterga ega. G'azzoliy esa axloqiy bilishni ruhiy-intuitiv jarayon sifatida talqin qilib, qalb va niyatga asosiy o'rin beradi. Ushbu ikki model o'rtasidagi asosiy farq bilish manbai va metodologiyasida namoyon bo'lib, zamonaviy falsafa ushbu yondashuvlarni qarama-qarshi emas, balki komplementar sifatida baholaydi. Axloqiy bilishning optimal modeli ratsional, intuitiv va ijtimoiy komponentlarning uyg'unligiga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кант И. Критика практического разума. – М.: Наука, 1995.
2. Abu Hamid al-Ghazali. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dar al-Ma'rifa, 2005.
3. Nasr S. H. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present. – New York: SUNY Press, 2006.
4. Taylor Ch. Sources of the Self. – Cambridge: Harvard University Press, 1989.
5. Griffel F. Al-Ghazali's Philosophical Theology. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
6. MacIntyre A. After Virtue. – Notre Dame: University of Notre Dame Press, 2007.
7. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
8. Haidt J. The Righteous Mind. – New York: Pantheon Books, 2012.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Falsafa: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
10. Abdulla Sher. Axloq falsafasi va uning zamonaviy talqini // Falsafa va huquq jurnali. – Toshkent, 2021.
11. Shavkat Jo'rayev. Axloqiy ong va uning ijtimoiy tabiati // Ijtimoiy fikr jurnali. – Toshkent, 2020.
12. Murod Xayrullayev. Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar // ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2019.
13. Zohidjon Islomov. Tasavvuf va uning axloqiy mohiyati // Islom tafakkuri jurnali. – Toshkent, 2022.
14. Abduvali Qoriyev. Imom G'azzoliy ta'limotida axloq masalalari // Sharqshunoslik jurnali. – Toshkent, 2021.
15. Dilshod Raximov. Axloqiy qarorlar va inson psixologiyasi // Psixologiya jurnali. – Toshkent, 2021.